

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA
QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISTARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



**TIQXMMI
MTU**
“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISTARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

**“Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash”
fakulteti**

**“Mashinalardan foydalanish
va ta'mirlash”
kafedrası**

**“Mashina traktor agregatlari ish unumini boshqarish” fanidan
kurs ishini bajarish bo'yicha**

USLUBIY QO'LLANMA



Toshkent – 2023

Uslubiy qo'llanma "TIQXMMI" Milliy Tadqiqot Universitet Kengashining 2023 yil "___" _____ № __ - son qarori bilan tasdiqlangan va chop etishga ruxsat etilgan.

Uslubiy qo'llanmadan 60810300 – "Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis va 60810400 - "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash" bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari hamda 60810100 - "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: A.K.Igamberdiyev. t.f.d., professor

Taqrizchilar: K.Qosimov. "Andijon mashinasozlik instituti"
kafedra mudiri, t.f.d., professor

B. Xudayarov. t.f.d., professor

Mundarija

	Kirish	4
-	Kurs ishining dolzarbligi	4
-	Kurs ishining maqsadi	5
-	Kurs ishining vazifasi	5
I.	KURS ISHIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR ..	6
1.1-§.	Talabning vazifalari	6
1.2-§.	Kurs ishini talab darajasida, o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlash	6
1.2.1-§.	Adabiyotlarni tanlash	6
1.2.2-§.	Fanga tegishli bo'lgan o'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma) va kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi quyidagi adabiyotlar va manbalarni o'rganish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish	7
II.	KURS ISHINING TARKIBIY TUZILISHI	7
2.1-§.	Kurs ishining tarkibiy tuzilishi mazmuni	8
2.2-§.	Kurs ishini texnik rasmiylashtirish	9
2.3-§.	Kurs ishini himoya qilish	9
III.	KURS ISHINI BAHOLASH ME'ZONLARI	10
IV.	MASHINA-TRAKTOR AGREGAT TARKIBINI HISOBLASH USLUBI	12
4.1.	Umumiy tushunchalar	12
V.	MAVJUD ENERGETIK VOSITA (TRAKTOR) UCHUN MAQBUL QISHLOQ XO'JALIK MASHINANI TANLASHNI NAZARIY ASOSLASH, QUUVAT SARFI, ISH UNUMI VA YONILG'I SARFI BO'YICHA BAHOLASH TARTIBI	13
VI.	MAVJUD QISHLOQ XO'JALIK MASHINA UCHUN ENERGETIK VOSITALAR (TRAKTORLAR)NI TANLASHNI NAZARIY ASOSLASH, QUUVAT SARFI, ISH UNUMI VA YONILG'I SARFI BO'YICHA BAHOLASH	20
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	25
	ILOVALAR	27

KIRISH

Kurs ishining dolzarbligi: Energetik vosita (traktor) dunyodagi aksariyat fermerlar ishini bajaruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Fermer xo'jaligi ehtiyojlariga muvofiq energetik vositalarni (traktorlarni) muvaffaqiyatli tanlash oson ish emas. Chunki, ko'plab tanlov mezonlari mavjud. Bir narsa aniqki, har bir fermer ko'p miqdorda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishi uchun o'zi rejalashtirgan barcha vazifalarni (operatsiyalarni) sifatli bajaradigan ishonchli, samarali, iqtisodiy va funksional yordamchi hisoblangan mashina-traktor agregatiga ega bo'lishni xohlaydi. Ular uchun asosiy tanlov mezonlaridan biri bu dvigatel quvvati hisoblanadi. Garchi traktorning imkoniyatlarini baholash uchun ilmoqdagi tortish quvvati, yoki tortish kuchi kabi parametrlarni hisobga olish eng to'g'ri mezon hisoblansada biroq, ko'pchilik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar ushbu parametrlarning xususiyatlariga emas, faqat dvigatel quvvatiga ishonadilar.

Odatda yuqori quvvatli, kuchli, katta mashina va mexanizmlarni, yoki keng qamrovli, qishloq xo'jalik mashinalarini yaratish, birinchi navbatda, ularning mahsuldorligi va ish unumini oshirish istagi bilan bog'liq.

Ammo, dvigatel quvvatini oshirish yo'li bilan mashina traktor agregatining ish unumini oshirish tuproqqa tejamkor munosabatda bo'lish talablari bilan cheklanadi. Bir qarashda, traktor dvigatelining quvvati tuproqni saqlashga qanday ta'sir qilishi mumkin? degan savol tug'iladi. Gap shundaki, dvigatel quvvatidan unumli foydalanish va uni yo'qotmasdan traktorga, keyin yerga o'tkazish uchun jihozlar tegishli vaznga ega bo'lishi kerak. Qishloq xo'jaligi traktorlaridan foydalanishda bu muammo mavjud. Chunki, biz bilganimizdek, tuproq tirik organizm va shuning uchun uni himoya qilish kerak.

Ma'lumki, xozirgi davrda qishloq xo'jaligi korxonalariga mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko'p miqdorda **yangi, yuqori quvvatli** traktorlar, **keng qamrovli** qishloq xo'jalik mashinalari, **o'ziyurar** murakkab mashinalar olib kelinmoqda. Bu texnikalar yuqori darajadagi ishonchliligi, avtomatik boshqaruv

tizimlarining mavjudligi, mashina mexanizm va uzellarining ishini nazorat qilinishi kabi jihatlariga ega bo'lib, jarayonlarni yuqori sifatda bajaradi hamda tejamkor ish rejimini ta'minlaydi. Lekin, mashina-traktor agregatlardan eng katta (maksimal) ish unumi va eng kam (minimal) yonilg'i iste'moli bo'yicha muayyan ish sharoitlari uchun tuzish va foydalanishdagi xatolar tufayli ulardan to'liq foydalanilmayot-ganligi xozirgi kunda muammo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida yuqori quvvatli traktorlardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'ildirakli traktor dvigatellarining quvvati bo'yicha o'rtacha yuklanishi 45..50 % ni tashkil qiladi, qolgan quvvat traktor g'ildiragining tuproqni deformatsiyalashiga, toyishiga, shataksirashiga sarflanadi, ya'ni energiyaning katta qismi samarasiz sarflanadi. Natijada yonilg'i sarfi isrofgarchiligiga yo'l qo'yiladi. Natijada sun'iy ravishds yonilg'i taxchilligi vujudga keladi. Bu negative holat texnologik operatsiyalarni kechikib bajarilishiga sabab bo'ladi. Ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etish uchun agregatlar tarkibini oldindan modellashtirish va ulardan foydalanishning oqilona ish rejimlarini hisoblash zarurati mavjudligi sezilmoqda. Shuning uchun, yuqori quvvatli traktorlar odatda energiyahajmdor hisoblanishini inobatga olib, ularning tortish xususiyatlarini **bir tomondan** dvigatel quvvati, **ikkinchi tomondan** g'ildiraklarining yer bilan ilashish sharoiti bo'yicha tahlil qilish, shu asosda mashina traktor agregatini tuzish, uning ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholashni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kurs ishining maqsadi: **1.** Fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi) yoki klasterlar sharoitida mavjud bo'lgan energetik vositalar (traktorlar)ga maqbul qishloq xo'jaligi mashinalarini tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash; **2.** Fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi) yoki klasterlar sharoitida mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi mashinalari uchun energetik vositalar (traktorlar)ni tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash uslublari bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Kurs ishining vazifasi - energetik vositalar hisoblangan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarining texnik tavsiflarini o'rganish va tahlil qilish,

fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi) yoki klasterlar sharoitida mavjud bo'lgan energetik vositalar (traktorlar)ga maqbul qishloq xo'jaligi mashinalarini tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash, fermer xo'jaliklar (fermerlar uyushmasi) yoki klasterlar sharoitida mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi mashinalari uchun energetik vositalar (traktorlar)ni tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash uslublari bo'yicha ko'nikma hosil qilish, asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish va mahsulotlarni yig'ib olish texnologik xaritasi asosida bajariladigan operatsiyalardan birini yakka tartibda tanlash, shu bo'yicha mashina traktor agregatini tuzish, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, foydalanish ko'rsatgichlarini nazariy asoslash, tahlil qilish, ishlab chiqilgan yechimni quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash, texnik – iqtisodiy samaradorligini hisoblashdan iborat.

I. KURS ISHIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

1.1-§. Talabning vazifalari

Talaba kurs ishini bajarish jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi talab etiladi:

- Kurs ishi mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;
- Kurs ishi mavzusiga oid o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlarni, mashina traktor agregatlarni maqbul tuzish usullarini, zamonaviy energetik vositalar (traktorlar) va qishloq xo'jaligi mashinalarining texnik tavsiflari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar va axborotlarni jamlash;
- Kurs ishi rahbari belgilagan grafik asosida kurs ishi vazifalarini o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida maslaxatlar olib turish;
- Kurs ishini talab darajasida tayyorlash va rasmiylashtirish;
- To'la rasmiylashgan, o'rnatilgan tartib bo'yicha bajarilgan kurs ishini o'z vaqtida himoya qilish uchun kafedraga taqdim etish.

1.2-§. Kurs ishini talab darajasida, o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlash

1.2.1-§. Adabiyotlarni tanlash

Fanga tegishli bo'lgan o'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma) va kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi quyidagi adabiyotlar va manbalar bankini yaratish, ularni mavzu doirasida tahlil qilish:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fan va mavzuga oid qaror va farmonlari;
- Vazirlar Mahkamasining ko'rilayotgan masalaga oid qarorlari
- Maxsus adabiyotlar, jumladan, xorijiy adabiyotlar;
- Ilmiy adabiyotlar, jumladan kurs ishi mavzusiga oid maqolalar, tezislari, ilmiy-amaliy anjuman materiallari;
- Ilmiy-ommabob manbalar;
- Ma'lumotnomalar, yakka tartibda berilgan enegetik vosita (traktor) va qishloq xo'jaligi mashinasining texnik tavsiflari, ulardan samarali foydalanish usullari, rusumlari, ishlash rejimlari (tezliklari), qanday energetik vositalarga yoki qanday qishloq xo'jalik mashinalariga mosligi, energetik ko'rsatkichlari (quvvati yoki talab etiladigan quvvat, qamrov kengligi, mehnat sarfi, yonilg'i sarfi va boshqalar), statistik ma'lumotlar;
- umumiy adabiyotlar va manbalar.

1.2.2-§. Fanga tegishli bo'lgan o'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma) va kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi quyidagi adabiyotlar va manbalarni o'rganish va asosiy ma'lumotlarni yig'ish

O'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma) va kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi quyidagi adabiyotlar va manbalarni o'rganish va tahlil qilishdan avval yana bir bor mavzuni to'g'ri tanlanganligiga, qanday vazifa qo'yilganligiga, qanday natijalar olinishi kerakligiga ishonch hosil qilish lozim.

Talabaga adabiyotlarni kurs ishi mavzusi bo'yicha, unga mos tarzda tanlash talab va tavsiya etiladi.

Kurs ishi rahbarining vazifasi talabaga o'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma) va kurs ishiga tegishli

bo'lgan barcha turdagi adabiyotlarni tanlashga ko'maklashishi talab va tavsiya etiladi.

Talabaga tanlagan manbalarni qayta ko'rib chiqish, kurs ishi vazifalariga mos manbalarning asosiylarini tanlash, qoldirish, tahlil qilib, qo'yilgan masalani tub mazmun va mohiyatini anglab olish va tushunish talab va tavsiya etiladi.

Manbalarni to'plashda talabaga uning chop etilgan yiliga, yangiligiga, zamon talabi darajasida yozilganligiga alohida e'tibor berishi talab etiladi.

Eski manbalardan foydalanilgan, ulardan olingan ma'lumotlar bugungi kundagi dolzarb hisoblangan muammolarni yechishda yetarlicha ahamiyatli bo'lmaydi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda o'ziga eng ma'qul deb topgan ma'lumotlarni olgandan so'ng kurs ishi mazmunli, dolzarb va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

II. KURS ISHINING TARKIBIY TUZILISHI

Kurs ishi mavzusi tanlanib, topshiriq rahbar tomonidan tasdiqlangandan so'ng, talaba ushbu topshiriq bo'yicha o'quv-uslubiy manbalarni (darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma)ni va kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi adabiyotlar va manbalarni bo'yicha asosiy ma'lumotlarni yig'ishi, mavzuga tegishli bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni o'rganishga kirishadi.

Talaba to'plagan material va ma'lumotlar asosida kurs ishining to'liq rejasi tuziladi.

Kurs ishining rejasi **Kirish**, **Asosiy qism** (3 tadan 5 tagacha bo'lgan masalani o'z ichiga qamrab olgan mavzular yoritiladi), **Xulosa** (o'z fikr-mulohaza va takliflar bayon etiladi), **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** va **Ilovalarni** o'z ichiga oladi.

2.1-§. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi mazmuni

1. Kurs ishining titul varag'i yagona nusxa bo'yicha rasmiylashtiriladi (ilovaga qarang).

2. Kurs ishning kirish qismida tadqiq etiladigan ishning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ishning ilmiy, amaliy va uslubiy yondashuvi asosi hamda yechimi beriladi.

3. Asosiy qismda har bir qo'yilgan masalaning to'liq mazmuni, ma'lumotlarning tahlili, nazariy asoslari, yechimi talab etiladigan muammo (masala) bo'yicha matematik hisob-kitob amallari, xorijiy va qo'shma korxonalarining ishlab chiqarayotgan energetik vositalarni qishloq xo'jaligi mashinalariga moslash yoki qishloq xo'jalik mashinalarini energetik vositalarga moslash bo'yicha tajribalari, hozirgi davrdagi yuqori quvvatli energetik vositalar va keng qamrovli qishloq xo'jaligi mashinalaridan tuzilgan mashina-traktor argetalaridan samarali foydalanishdagi mavjud muammolar tahlili va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi.

Kurs ishida amalga oshirilgan texnik yechim yoki texnik yechimni amalga oshirish uslubi (yo'llari), mavjud muammoni bartaraf etish yo'llarining barchasi qo'yilgan talablarga javob berishi, bajarilgan ish nazariy va ilmiy jihatdan aniq asoslangan xarakterga ega bo'lishi kerak. Har bir yechimi ishlab chiqilgan masalalar qisqa xulosalar bilan tugallanishi kerak.

Kurs ishining asosiy qismi, uning umumiy hajmining qariyb 60 % ni tashkil qilishi kerak. Bajarilgan ishda izlanish ob'ektlarining texnik, tashkiliy va iqtisodiy tavsiflari, sxemalari va ularning nazariy va amaliy jihatdan o'zaro bog'liqligi ochib beriladi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, jadvallar, sxemalar, diagrammalar ko'rinishida berilishi mumkin. Natijalar iqtisodiy tahlil etilgan va asoslangan hamda izoxlangan bo'lishi kerak.

Ishda iqtisodiy ko'rsatkichlar taqqoslash usullari misolida tahlil etilishi, ko'rsatkichlarning o'zgarishidagi tendensiyalar, qonuniyatlar, sabab va oqibatlarining bog'lanishlari ochib berilishi kerak.

Kurs ishining xulosa qismida bajarilgan ish yuzasidan barcha xulosalar umumlashtiriladi, talabanning ishni bajarish jarayonida orttirgan malaka va

ko'nikmalari asosida o'z fikr va mulohazalari bayon etiladi, amaliy taklif va tavsiyalari beriladi.

Taklif, tavsiya va mulohazalar har bir talabaning o'ziniki bo'lib, ular boshqa ishlarda qayd etilishi, takrorlamasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda talaba faqat kurs ishida berilgan masalaning yechimini topishda foydalangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fan va mavzuga oid qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining ko'rilayotgan masalaga oid qarorlari, maxsus adabiyotlar, jumladan, xorijiy adabiyotlar, ilmiy adabiyotlar, jumladan kurs ishi mavzusiga oid maqollar, tezislar, ilmiy-amaliy anjuman materiallari va ilmiy-ommabob manbalardan namunalarni keltirishi lozim.

Matnlarda adabiyotlarga havola berishda va adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda ulardan foydalanganlik ketma-ketligi bo'yicha bibliografik yozuvlarning to'g'ri yozilishiga ahamiyat berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ularni bir necha guruhlarga bo'lish ham tavsiya etiladi. Hujjatlar va adabiyotlarni guruhlar bo'yicha joylashtirish ham mumkin.

2.2-§. Kurs ishini texnik rasmiylashtirish

Kurs ishi matni A4 formatdagi standart qog'oz varag'ining bir tomoniga joylashtirilishi va qoida tariqasida 1,25 qator oralig'ida yozilishi lozim. Xatboshi 1,27 sm.ga teng va bir xilda bo'lishi lozim. Standartga mos holda har bir varaqning o'ng va chap, past va yuqori tomonidan hoshiya qoldirilish kerak, ya'ni:

chap tomondan – 30 mm;

yuqoridan - 20 mm;

o'ng tomondan – 15 mm;

pastdan – 20 mm.

Har bir ko'riladigan masalaning nomlari asosiy matndan (14 pt) oraliq bilan ajratilishi kerak.

Varaqlarni nomerlash pastdan ketma-ketlikka rioya qilgan hoda kirishdan boshlab qo'yilishi kerak.

2.3-§. Kurs ishini himoya qilish

Kurs ishini himoya qilish kafedra tomonidan tayinlangan komissiyasining ochiq majlisida amalga oshiriladi.

Himoya talabaning o'z ishi yuzasidan tayyorlagan qisqa (10-12 daqiqalik) ma'ruzasidan iborat bo'lishi kerak. Ma'ruzada mavzuning dolzarbligi, foydalanilgan manbalarning tavsifi, umumlashtirilgan xulosalar, muallifning himoya qilayotgan ishi yuzasidan olingan natijalari, fikr-muloxazalari va takliflari bayon etiladi.

Illyustrasiya sifatida talaba oldindan tayyorlangan sxema, jadval, grafik, diagramma, rasmlardan foydalanishi mumkin. Dokladni tugatgach talaba komissiya a'zolarining savollariga javob beradi.

III. KURS ISHINI BAHOLASH ME'ZONLARI

Kurs ishini baholash mezoni himoya natijasi bo'yicha 5 baholik baholash tizimi orqali aniqlanadi.

Baholash ko'rsatkichlari		Baholash mezonlari
3 baho	-	kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi va ilmiy rahbar taqrizining mavjudligi;
	-	kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi;
	-	talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (ma'ruza) darajasi;
	-	talabaning kurs ishi taqdimotini tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi;
	-	komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan to'g'ri javoblarga. Har bir to'g'ri javob inobatga olinadi.
	-	kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi va ilmiy rahbar taqrizining mavjudligi;
	-	kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi;

4 baho	-	talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (ma'ruza) darajasi;
	-	talabaning kurs ishi taqdimotini tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi;
	-	komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan to'g'ri javoblarga. Har bir to'g'ri javob inobatga olinadi.
	-	kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanganligi;
	-	talabaning o'z fikr va mulohazalarini bayon eta olishi, taklif va tavsiyalarining asoslash darajasi;
5 baho	-	kurs ishining dastlabki himoyasi dalolatnomasi va ilmiy rahbar taqrizining mavjudligi;
	-	kurs ishining rasmiylashtirish talablariga javob berishi;
	-	talaba tomonidan kurs ishining mazmunini ochib berish (ma'ruza) darajasi;
	-	talabaning kurs ishi taqdimotini tayyorlanish holati va undan foydalanish darajasi;
	-	komissiya a'zolari tomonidan berilgan savollarga berilgan to'g'ri javoblarga. Har bir to'g'ri javob inobatga olinadi.
	-	kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanganlik darajasi;
	-	kurs ishi mavzusi bo'yicha tarqatma materiallarning mavjudligi va undagi ma'lumotlarning asoslanganligi;
	-	talabaning o'z fikr va mulohazalarini bayon eta olishi, taklif va tavsiyalarining asoslash darajasi;
	-	kurs ishi himoyasi uchun belgilangan vaqtdan unumli foydalanganligi;
-	soha rivoji uchun talaba tomonidan ishlab chiqilgan dolzarb taklif va g'oya uchun.	

Kurs ishi topshiriqqa mos kelmagan, ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan, o'z fikr va mulohazalari boshqalanikiga mos kelgan, himoya natijasi bo'yicha 3 bahodan kam baho olgan talabalar o'quv rejasida ko'rsatilgan mazkur fandan yakuniy baholashga kirish huquqidan chetlashtiriladi.

IV. MASHINA-TRAKTOR AGREGAT TARKIBINI HISOBLASH USLUBI

4.1-§. Umumiy tushunchalar

Energiyani tejoychi mashina-traktor agregatlar tarkibini hisoblash energetik vositani (traktorni) va u bilan birlashtirilagan (agregatlanadigan) qishloq xo'jaligi mashinalarini maqbul tarkibini tanlash maqsadini ko'zlagan amal bo'lib, tuzilgan mashina-traktor agregatlar muayyan ish sharoitida bajariladigan texnologik operatsiyaning talab qilinadigan sifatini, eng yuqori (maksimal) ish unumini (mahsuldorlikni) va eng kam (minimal) yoqilg'i sarfini eng kam energiya sarfi bilan ta'minlaydi.

Ushbu maqsadga agregat tarkibidagi traktorning berilgan sharoitlarda tortishish (to'la tortish) kuchidan foydalanish koeffitsienti mumkin bo'lgan eng yuqori (maksimal) foydalanish koeffitsientiga yaqin bo'lganda erishish mumkin, ya'ni.

$$\eta_T = \frac{N_{ag}}{N_s^n} \rightarrow \eta_T^{\max} = \frac{N_{il}^{\max}}{N_s^n} \quad (1)$$

bu yerda N_{ag} - agregatning berilgan sharoitda ishlashi uchun zarur bo'ladigan quvvat, kVt; N_e^n - traktor dvigatelining samarali nominal (yoki mavjud ma'lumotlarga ko'ra foydalanishdagi) quvvati, kVt; η_T^{\max} - berilgan ish sharoiti uchun traktorning tortish kuchidan maksimal foydalanish koeffitsienti; N_{il}^{\max} - berilgan ish sharoiti uchun traktorning maksimal ilmoqdagi tortish quvvati, kVt.

(1) mezonga quyidagi mezonlar mos keladi:

$$\eta_{m.f.} = \frac{N_{ag}}{N_{il}^{\max}} \rightarrow 1 \quad (2)$$

bu yerda $\eta_{m.f.}$ - tortish quvvatidan foydalanish koeffitsienti;

$$\eta_{d.yuk.} = \frac{N_f}{N_s^n} \quad (3)$$

bu yerda $\eta_{d.yuk.}$ - traktor dvigateling yuklanish koeffitsienti; N_f - traktor dvigateling foydalanishdagi quvvati.

Kurs ishining maqsadi mavjud energetik vosita hisoblangan traktorga maqbul qishloq xo'jaligi mashinani tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholash yoki mavjud qishloq xo'jalik mashina uchun maqbul traktor tanlashni nazariy asoslash, quvvat sarfi, ish unumi va yonilg'i sarfi bo'yicha baholashni nazarda tutgan. Shunga ko'ra mavjud traktorlarga mexanizasiyalashgan dala ishlarini bajarish (yerni shudgorlash, chuqur yumshatish, diskali yumshatish, kultivasiyalash, boronalash (tirmalash), kesaklarni g'altaklar bilan yanchib maydalash, urug'larni ekish va boshqalar) uchun qishloq xo'jalik mashinasini yoki mavjud qishloq xo'jalik mashina uchun maqbul traktor tanlash kerak bo'ladi.

Masalan: mavjud traktorga EurOpal rusumli aylanma plugni qanday to'g'ri tanlash kerak degan savolga shunday yondoshish kerak.

EurOpal rusumli aylanma plugli agregatni tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish kerak bo'ladi. Birinchidan traktorning quvvatini hisobga olish kerak. Barcha ishlaydigan mashinalar, traktorning quvatiga qarab, aylanma pluglar 2 dan 12 ta gacha korpuslar soniga bo'linadi.

V. MAVJUD ENERGETIK VOSITA (TRAKTOR) UCHUN MAQBUL QISHLOQ XO'JALIK MASHINANI TANLASHNI NAZARIY ASOSLASH, QUUVVAT SARFI, ISH UNUMI VA YONILG'I SARFI BO'YICHA BAHOLASH TARTIBI

Vazifa: Yerni shudgorlash uchun mavjud _____ rusumli (markali) traktor uchun maqbul plugdan tashkil topgan mashina traktor agregati tuzilsin. Tanlanadigan plug bilan 30 sm chuqurlikda tuproq shudgorlansin.

Dastlabki ma'lumotlar:

Bunday vazifani bajarish uchun dastlabki ma'lumotlar darslik, amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma, kurs ishiga tegishli bo'lgan barcha turdagi manbalar yordamida shakllantiriladi. Kurs ishi vazifasini oson yechimini topish uchun dastlabki ma'lumotlarni olish uchun mazkur uslubiy qo'llanmaning ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Dastlabki ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

1. Topshiriqda berilgan _____ rusumli (markali) traktorning g'ildirak sxemasi (4x4 yoki 4x2);
2. traktor dvigatelining samarali quvvati N_e^n , kW;
3. solishtirma yonilg'i sarfi q , g/kW.soat;
4. tuproqning solishtirma qarshiligi K , kN/m²;
5. traktorning foydalanish og'irligi G_t ;
6. traktor transmissiyasining foydali ish koeffisienti, η_t ;
7. traktor g'ildiraklarning ruxsat etilgan shataksirashi, δ , %;
8. traktorning shudgorlashda agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{\min} va v_{\max} qiymatlari.

Agregatning ishlash sharoiti quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Ishlov beriladigan maydon agrofoni - o'tloqli, ko'p yillik o'tlar qatlamli, siqilgan (zichlangan) somonli dala yoki boshhoqli va bir yillik o'tlar o'rib olingan

ang'izli dala yoki makkajuxori va kungaboqar o'rib olingan dala yoki diskli pichoqlar bilan ishlov berilgan ang'izli dala;

2. Traktor g'ildiraklarining agrofondagi tuproq bilan ilashish koeffisienti μ ;
3. traktor yurish qismining dumalanishiga qarshilik koeffitsienti f ;
4. traktor ishlaydigan dala maydonining qiyaligi, i .

Vazifani yechish

Agregatda amalga oshirish mumkin bo'lgan torish (foydali) quvvat N_f^{dv} agrotexnik jihatdan ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{\min} va v_{\max} qiymatlari uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N_f^{dv} = N_s^n \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100}\right) - \frac{G_t v_{\min} \left(f \pm \frac{i}{100}\right)}{3,6}; \text{ kN}; \quad (1)$$

$$N_f^{dv} = N_s^n \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100}\right) - \frac{G_t v_{\max} \left(f \pm \frac{i}{100}\right)}{3,6}; \text{ kN} \quad (2)$$

Shataksirash (sirpanish), o'zini-o'zi harakatga keltirish va qiyalik bo'yicha ko'tarilish (tushish) ni engib o'tishga quvvat yo'qotishlarni hisobga olgan holda traktorning ilashish xususiyatlari bilan belgilanadigan ilmoqdagi tortish quvvati formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_{il}^{\mu} = \frac{G_t \cdot v_{\min} \left[\lambda \mu - \left(f \pm \frac{i}{100}\right) \right]}{3,6} - N_s^n \cdot \eta_t \cdot \frac{\delta}{100}; \text{ kN} \quad (3)$$

$$N_{il}^{\mu} = \frac{G_t \cdot v_{\max} \left[\lambda \mu - \left(f \pm \frac{i}{100}\right) \right]}{3,6} - N_s^n \cdot \eta_t \cdot \frac{\delta}{100}; \text{ kN} \quad (4)$$

Eng katta tortish quvvatiga erishiladigan agreget tezligi quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi

$$v_{N_{il}^{\max}} = 3,6 \frac{N_e^H \cdot \eta_t}{G_{tr} \cdot \lambda \cdot \mu} \quad (5)$$

Traktorning ilmog'idagi eng katta (maksimal) tortish quvvati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi;

$$N_{il}^{\max} = N_s^H \cdot \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100} - \frac{f \pm \frac{i}{100}}{\lambda \cdot \mu} \right); \quad \text{kN} \quad (6)$$

Hisoblar natijalari bo'yicha 3 ta variant bo'lishi mumkin, ya'ni:

1-variant. Hisoblangan $v_{N_{il}^{\max}}$ agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{\min} va v_{\max} qiymatlarida bo'lsa, ya'ni $v_{\min} > v_{N_{il}^{\max}} > v_{\max}$.

Bunday holatda agregatning maqbul harakatlanish tezligi v_{maq} eng katta tortish quvvati olinadigan $v_{N_{il}^{\max}}$ tezlikka teng bo'ladi va agregatning maqbul qamrov kengligi B_{maq} quyidagi nisbatda aniqlanadi.

$$B_{maq} = \frac{N_{il}^{\max}}{N_{sol}} \quad (7)$$

bu yerda N_{sol} - qishloq xo'jalik mashinasi yoki bitta korpusning bir birlik qamrov kengligiga to'g'ri keladigan solishtirma quvvat kW/m yoki kW/m².

Solishtirma quvvat har xil agregatlar uchun quyidagicha aniqlanadi:

1. Xaydov agregati uchun;

$$N_{sol} = \frac{v_{maq}}{3,6} \left(k_{pl} \cdot a \pm q_{pl} \cdot \frac{i}{100} \right) \quad (8)$$

bu yerda k_{pl} - plugning solishtirma tortish qarshiligi, kN /m²; a – plugning shudgorlash chuqurligi, m; q_{pl} - plugning bir birlik ish kengligiga to'g'ri kelgan og'irligi, kN /m.

2. Tortish agregatlari uchun;

$$N_{sol} = \frac{v_{maq}}{3,6} \left(k_{m(i)} \pm q_{m(i)} \frac{i}{100} \right) \quad (9)$$

bu yerda $k_{m(i)}$ - i -chi turdagi qishloq xo'jalik mashinasining solishtirma tortishish qarshiligi, kN/m; $q_{m(i)}$ - i -chi turdagi qishloq xo'jalik mashinasining bir birlik ish kengligiga to'g'ri kelgan og'irligi, kN/m.

3. Ko'pfunksional kompleks agregatlar uchun;

$$N_{sol} = \frac{v_{maq}}{3,6} \left(\sum k_{m(i)} \pm \sum q_{m(i)} \frac{i}{100} \right) \quad (10)$$

bu yerda $\sum k_{m(i)}$ - i -chi turdagi qishloq xo'jalik mashinalarining solishtirma tortishish qarshiliklari summasi, kN/m; $\sum q_{m(i)}$ - i -chi turdagi qishloq xo'jalik mashinalarining bir birlik ish kengligiga to'g'ri kelgan og'irliklari, kN/m.

2-variant. Hisoblangan $v_{N_{il}^{max}}$ agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{min} va v_{max} qiymatlaridan tashqarida bo'lsa $(v_{min} \dots v_{max}) > v_{N_{il}^{max}}$ ya'ni, traktor g'ildiraklarining tuproq bilan ilashish yetarli bo'lmagan zonada bo'lsa, u holda traktorning ilmog'idagi eng katta (maksimal) tortish quvvatiga eng kam ruxsat etilgan agrotexnik tezlik qiymatida erishiladi va quyidagicha aniqlanadi

$$N_{il}^{dmax} = N_s^H \cdot \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100} \right) - \frac{Gv_{min}}{3,6} \left(f \pm \frac{i}{100} \right) \quad (11)$$

Bunday holatda agregatning maqbul qamrov kengligi B_{maq} quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi

$$B_{maq} = \frac{N_{il}^{d \max}}{N_{sol}} \quad (12)$$

3-variant. Hisoblangan $v_{N_{il}^{\max}}$ agrotexnik ruxsat etilgan tezliklarining oraliq v_{\min} va v_{\max} qiymatlaridan tashqarida bo'lsa $(v_{\min} \dots v_{\max}) \leq v_{N_{il}^{\max}}$ ya'ni, traktor g'ildiraklarining tuproq bilan ilashishi yetarli bo'lmagan zonada bo'lsa, u holda traktorning ilmog'idagi eng katta (maksimal) tortish quvvatiga eng ko'p ruxsat etilgan agrotexnik tezlik qiymatida erishiladi va quyidagicha aniqlanadi

$$N_{il}^{d \max} = N_s^H \cdot \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100}\right) - \frac{Gv_{\max}}{3,6} \left(f \pm \frac{i}{100}\right) \quad (13)$$

Bunday holatda agregatning maqbul qamrov kengligi B_{maq} quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi

$$B_{maq} = \frac{N_{il}^{d \max}}{N_{sol}} \quad (14)$$

Har bir agregat turi uchun aniqlangan maqbul qamrov kengliklar B_{maq} bo'yicha aniq qishloq xo'jaligi mashinasi (mashinalari) yoki plug tanlanadiki, unda tanlangan agregatning qamrov kengligi B_{ag} hisoblangan maqbul B_{maq} qamrov kenglikka yaqin bo'lsin

$$B_{ag} \leq B_{opt} \text{ yoki } B_{ag} \leq B_{oqilona} \quad (15)$$

Mashina yoki plug (korpuslar soni bilan) tanlanganidan so'ng agregatning agrotexnik tezliklar chegarasida $(v_{\min} \dots v_{\max})$ ishlaydigan N_{ag} quvvati aniqlanadi.

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} (\nu_{\min} \dots \nu_{\max})}{3,6}, \text{ ya'ni;} \quad (16)$$

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot \nu_{\min}}{3,6},$$

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot \nu_{\max}}{3,6},$$

bu yerda R_{ag} - tanlangan agregatning tortishga (sudrashga) qarshiligi, kN.

Tortishga (sudrashga) qarshilik R_{ag} agregat turiga qarab quyidagicha aniqlanadi:

1. Xaydov agregati uchun;

$$R_{ag} = B_{pl} \cdot K_{pl} \cdot a \pm G_{pl} \frac{i}{100} \quad (17)$$

bu yerda B_{pl} - tanlangan plugning qamrov kengligi, m; G_{pl} - plugning og'irligi, kN

2. Tortish agregatlari uchun;

$$R_{ag} = b_{M(i)} \cdot k_{M(i)} \pm G_{M(i)} \frac{i}{100} \quad (18)$$

3. Ko'pfunksional kompleks agregatlar uchun;

$$R_{ag} = B \sum k_{M(i)} \pm \sum G_{M(i)} \frac{i}{100} \quad (19)$$

Barcha agregatlarning agrotexnik jihatdan ruxsat etilgan tezliklarining oraliq qiymatlarida ishlash uchun kerak bo'ladigan tortish quvvati quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} (\nu_{\min} \dots \nu_{\max})}{3,6}, \text{ ya'ni; } \quad (20)$$

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot \nu_{\min}}{3,6}$$

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot \nu_{\max}}{3,6}$$

Traktor g'ildiraklarining tuproq bilan ilashishi yetarli bo'lgandagi maqbul ν_{maq} yoki oqilona $\nu_{oqilona}$ tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\nu_{maq} = \frac{3,6 \cdot N_s^H \cdot \eta_t \left(1 - \frac{\delta}{100}\right)}{R_{ag} + G_t \left(f \pm \frac{i}{100}\right)} \quad (21)$$


Traktor g'ildiraklarining tuproq bilan ilashishi yetarli bo'lmagandagi maqbul ν_{maq} yoki oqilona $\nu_{oqilona}$ tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\nu_{maq} = \frac{R_{ag} + 3,6 \cdot N_s^H \cdot \eta_t \cdot \frac{\delta}{100}}{G_t \left[\lambda \cdot \mu - \left(f \pm \frac{i}{100}\right) \right]} \quad (22)$$

Aniqlangan maqbul ν_{maq} tezlikda agregat uchun talab etiladigan N_{ag} quvvat quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$N_{ag} = \frac{R_{ag} \cdot v_{maq}}{3,6} \quad (23)$$

